



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING BUYRUG'I

2022 yil "30" iyun

№ 49

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida amalda qo'llanilayotgan uslubiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z ahamiyatini yo'qotgan va bir-birini takrorlovchi qoidalarni bekor qilish orqali rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reyestrini yuritish uslubiyatini yanada takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reyestrini yuritish Reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qo'mitaning markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar statistika boshqarmalari mazkur Reglamentni rahbarlik va ijro uchun qabul qilsinlar.

3. Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi (X. Jurayev), Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov) va Axborot xavfsizligi boshqarmasi (SH. Djanadilov) birgalikda bir oy muddatda Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reyestrining dasturiy ta'minoti uchun zarur bo'lgan vazifalarni belgilab bersinlar.

4. Axborot xavfsizligi boshqarmasi (SH. Djanadilov) va Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi (X. Jurayev) Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reyestrining dasturiy ta'minotini ishlab chiqsin va amaliyotga tadbir qilsinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2013-yil 16-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Statistik axborotlarni majburiy tarqatish reyestrini yuritish Reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 31-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdibayev) ushbu Reglamentni davlat statistika organlarining barcha xodimlariga tanishtirilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosari Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

Rais

B. Begalov

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining
Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish
reystri yuritish reglamenti**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reystri yuritish reglamenti (bundan buyon matnda – Reglament deb yuritiladi), O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish reystri (bundan buyon matnda – Reyestr deb yuritiladi) yuritish tartibini belgilab beradi.

2. Ushbu Reglament, qo'shimcha ishlov berilishi talab etiladigan, tarkibida individual ma'lumotlar, davlat siri va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirlarga ega rasmiy statistika ma'lumotlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

3. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

statistika ma'lumotlari – statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot;

rasmiy statistika – O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni qoidalariga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlari;

individual ma'lumotlar – statistik birlikni tavsiflovchi, uni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini beruvchi birlamchi ma'lumotlar;

yig'ma statistika ma'lumotlari – statistik birlikni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini bermaydigan, individual va/yoki birlamchi ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan statistika ma'lumotlari.

reystr – Statistika dasturini (bundan buyon matnda – Dastur deb yuritiladi) bajarilishi davomida tayyorlangan yig'ma statistika ma'lumotlari bepul taqdim etiladigan vazirlik va idoralar to'g'risidagi, zarurat tug'ilganda yangilanib boriladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi tizimlashtirilgan ro'yxat.

4. Vazirlik, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan, Dasturda ko'zda tutilgan rasmiy statistika ma'lumotlari reyestrga kiritilgan vazirlik, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlarga bepul taqdim etib boriladi.

5. Vazirlik, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlarga rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish, Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'linmalari tomonidan, Reyestrqa qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

6. Reyestr maxsus dasturiy-texnik vositalardan foydalangan holda elektron shaklda yuritiladi hamda vazirlik, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risida mazkur Reglament ilovasida ko'rsatilgan asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

7. Reyestr Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlari tomonidan taqdim qilinadigan rasmiy statistika ma'lumotlarining tarqatish manzillari ro'yxatini shakllantirishda hamda Dastur asosida tayyorlanadigan axborotlarning o'z vaqtida taqdim qilinishini nazorat qilishda foydalaniladi.

2-bob. Reyestrni yuritish

8. Vazirlik, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni reyestrqa kiritish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va topshiriqlari, shuningdek, vazirlik va idoralarning yozma murojaatlariga asosan amalga oshiriladi.

9. Reyestrni yuritishda, quyidagi hollarda ma'lumotlarning elektron bazasiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi:

a) vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyektni Reyestrqa kiritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va topshiriqlari qabul qilinganda;

b) Reyestrqa kiritilgan vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilganda (qayta tashkil qilinganda);

v) vazirlik yoki idoraning doimiy ravishda rasmiy statistika ma'lumotini taqdim etib borish to'g'risida Davlat statistika qo'mitasiga berilgan yozma murojaatiga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi raisining tegishli ko'rsatmasi bilan;

g) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan Dasturga muvofiq.

10. Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi:

Reyestrning elektron ma'lumotlar bazasini yuritish va ushbu Reglamentning 9-bandida ko'rsatilgan holatlarda, unga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

Reyestrni yuritish uchun dasturiy ta'minotni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'limlarining vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi subyektlarga rasmiy statistika ma'lumotlarini ushbu Reglament talablariga qat'iy rioya qilgan holda bepul taqdim etilishi bo'yicha faoliyatlarini monitoring qilish ishlarini amalga oshiradi.

11. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi:

har yili Dasturdagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlarni Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasiga taqdim qiladi;

reyestrğa muvofiq tarqatiladigan rasmiy statistika ma'lumotlari bo'yicha tasniflash xos raqamlarini belgilanishini ta'minlaydi.

12. Axborot xavfsizligi boshqarmasi:

Reyestrni yuritish bo'yicha dasturiy ta'minotni tizimli boshqaruvini va takomillashtirishni amalga oshiradi;

Davlat statistika qo'mitasining mas'ul xodimlariga, ruxsat darajasiga muvofiq, Reyestrning axborot fondini ko'rish uchun foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi;

Reyestr axborot fondidan zahira nusxa ko'chirilishini va uning arxiv saqlovini, shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlaydi.

13. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi:

Reyestrğa kiritilgan vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi subyektlarga, tegishli rasmiy statistika ma'lumotlarini qog'oz ko'rinishida yoki elektron manzillar bo'yicha o'z vaqtida tarqatilishini;

elektron shaklda yuborilgan rasmiy statistika ma'lumotlarini vazirlik va idoralar tomonidan olinganligini tekshirib borilishini ta'minlaydi.

14. Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'limlari Dasturga muvofiq rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etilishini ta'minlaydilar va ularni ushbu Reglament talablariga rioya etgan holda tarqatilishi uchun Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasiga taqdim etadilar.

3-bob. Yakuniy qoidalar

15. Ushbu Reglament vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi subyektlarga Reyestrğa kiritilgan, Dastur asosida tayyorlangan, statistik byulletenlar va jadvallarni bepul taqdim etishni nazarda tutadi.

16. Davlat statistika qo'mitaga bevosita yoki boshqa manbalardan murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslarga, rasmiy statistika ma'lumotlari, belgilangan tartibda va Dasturda belgilangan muddatlarda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

17. Reyestrğa muvofiq, tarqatilishi lozim bo'lgan rasmiy statistika ma'lumotlarini vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi subyektlarga ushbu Reglament talablariga rioya qilgan holda taqdim etishga Davlat statistika qo'mitasi boshqarma (bo'lim) boshliqlari javobgardirlar.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy
tarqatish reyestrini yuritish reglamentiga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining
Rasmiy statistika ma'lumotlarini majburiy tarqatish
reyestri tuzilmasi**

№	Satr nomi
1.	Vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyektning identifikatsion xos raqami (STIR)
2.	Vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyektning nomi
3.	Vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyektning idoraviy mansubligi (DBIBT)
4.	Vazirlik, idora, xo'jalik yurituvchi subyektning Reyestrda kiritish uchun asos bo'ladigan hujjatning nomi, qabul qilingan sanasi va tartib raqami
5.	Majburiy tarqatmaning xos raqami (jadval, statistik byulleten va h.k.)
6.	Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish shaklining xos raqami (qog'oz ko'rinishda, elektron shaklda)
7.	Reyestrdagi Statistika dasturining ma'lumotlar bazasi xos raqamlari bilan o'zaro bog'lash uchun yordamchi xos raqamlar